

## HAKIM AT-TERMIZIYNING TASAVVUFİY QARASHLARI

**Jamila Badalova**

Termiz davlat pedagogika instituti

Falsafa va ma'naviyat kafedrasи o'qituvchisi

**Ro'ziyeva Saodat**

Termiz davlat pedagogika instituti

Miliy g'oya va ma'naviyat asoslari yo'nalishi talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada mashhur Markaziy Osiyolik mutasavvif olim Hakim at-Termizi (IX asr)ning tasavvufiy qarashlari tahlil qilinadi. Muallif Hakim at-Termiziyning inson ma'naviy kamolotiga oid g'oyalari, "valoyat" konsepsiysi, ruhiy tarbiya usullari hamda uning zamonasidagi malomatiylar harakatiga nisbatan bildirgan tanqidlari asosida hududlararo tasavvufiy muktablar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va tafovutlarni yoritadi. Shuningdek, Hakim at-Termiziyning fikrlari orqali tasavvuf tarixida shakllangan ma'naviy yo'nalishlarning umumiy qiyofasi va taraqqiyot bosqichlari ochib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Hakim at-Termizi, tasavvuf, valoyat, malomatiylar, ruhiy tarbiya, ma'naviy kamolot, hududlararo ta'sir, tasavvuf tarixi.*

### ABSTRACT

*This article analyzes the mystical views of the famous Central Asian mystic Hakim al-Tirmidhi (9th century). The author sheds light on the interaction and differences between interregional mystical schools based on Hakim al-Tirmidhi's ideas about human spiritual perfection, the concept of "walayat", methods of spiritual education, and his criticism of the Malamati movement of his time. Also, through the thoughts of Hakim al-Tirmidhi, the general appearance and stages of development of spiritual trends formed in the history of Sufism are revealed.*

**Keywords:** *Hakim al-Tirmidhi, Sufism, walayt, Malamati, spiritual education, spiritual perfection, interregional influence, history of Sufism.*

### KIRISH

Tasavvuf tarixini mintaqalar asosida o'rghanishga harakat qilganimizda, Xuroson viloyati alohida ajralib turadi. Ushbu hududning markaziy shaharlaridan bo'lgan Balx, Nishapur, Hirot va Marvda ko'plab mashhur so'fiylar yetishib chiqqan. Bundan tashqari, Kirmon, Sheruz, Naso, Ray, Isfahon va Termiz shaharlarida ham tasavvufiy harakatlar jonli tarzda yashab kelgan. Bu shaharlardan Nishapur, ayniqsa, malomatiy yo'nalishiga mezonlik qilgani bilan boshqalardan ajralib turadi. Albatta, Nishopurda

shakllangan tasavvufiy qarashlar butun Xuroson va hattoki Iroq hududidagi tasavvufiy oqimlardan mustaqil ravishda vujudga kelganini aytish haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Ayniqsa, Balxlik so‘fiylarning Nishopur bilan bo‘lgan aloqalari, bu shaharda tasavvuf tafakkurining shakllanishida ular muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi.

### **MATERIAL VA METODLAR.**

So‘fiylarning aksariyati safarlar yoki xat almashishlar orqali o‘zaro aloqa o‘rnatgan bo‘lib, bu aloqa tasavvufiy bilim va tajribalar almashinuvini yengillashtirgan.

Islom tarixidagi ilk davr so‘fiylaridan biri bo‘lgan Hakim at-Termiziy (vafoti 298/910 y.) o‘z davrning mashhur so‘fiylari bilan aloqada bo‘lishdan cho‘chimagan va shu yo‘l bilan tasavvuf ahlining dastlabki shakllanish bosqichidagi aloqa tarmoqlariga qo‘shilgan. Mazkur mavzuga doir ravishda aytish mumkinki, malomatiya, futuvvat va Karramiylik kabi yo‘nalishlar beshigi hisoblangan Nishopur shahri Hakim at-Termiziy turli kanallar orqali bog‘langan asosiy shaharlar qatorida edi [2].

Ma’lumki, Hakim at-Termiziy malomatiy tafakkurni nuqsonli deb bilgan va bu yo‘nalish vakillaridan biri bo‘lmish Abu Usmon al-Hiriya yozgan maktubida o‘z fikrlarini bayon qilgan. Endi savol tug‘iladi: ushbu tanqidlar qanday bir asosda baholanishi kerak va ular malomatiya yo‘lini tutganlarga qanday ta’sir o‘tkazgan? Bu savolga javob izlash mintaqalararo aloqa tarmoqlarining tasavvuf shakllanishiga qanday darajada ta’sir ko‘rsatganiga oid aniq misol bo‘lib xizmat qiladi.

Tasavvuf tarixida valoyat (avliyo bo‘lish) haqidagi qarashlari bilan tanilgan Hakim at-Termiziy — shu mavzudagi fikrlarini bevosita o‘z asarlarida ifoda etgan muhim so‘fiylardan biridir. Asarlarining katta qismi bizgacha yetib kelgani uni faqat so‘fiy emas, balki fiqh, kalom va falsafa kabi boshqa ilmiy sohalarda ham faol ijod qilgan ko‘p qirrali olim sifatida tavsiflashga imkon beradi. U o‘z tarjimai holini yozgan bo‘lib, bu nafaqat uning hayoti va ichki-ma’naviy sayohati haqida bevosita ma’lumot olishga yordam beradi, balki uning ilmiy jasoratini ham namoyon etadi [3].

Shuningdek, bu avtobiografiyada u faqat Ahmad ibn Osim al-Antakiy (vaf. 239/853)dan ta’sirlanganini aytadi, boshqa so‘fiy shayxlar haqida esa tilga olmaydi. Tasavvuf tili bilan aytganda, bu holat Hakim at-Termiziyning ma’rifatni (ilohiy bilimni) ilhombaxsh (vahbiy) tarzda egallaganini ko‘rsatadi. Asli Termizlik bo‘lgan Hakim at-Termiziy ayrim masalalarni ochiq bayon etgani tufayli Balx shahriga surgun qilinganini hikoya qiladi. Balx aholisi bu masalalarda u bilan fikrdosh bo‘lgani uchun uning bu yerda istiqomat qilishi nisbatan oson kechgan bo‘lishi mumkin. U Balxda qancha vaqt yashagani haqida aniq ma’lumot yo‘q, ammo bu shahardagi kuchli tasavvufiy muhitdan foydalangani aniq [1].

## MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Hakim at-Termiziyning 285/899-yilda Nishopurda hadis darslarini o‘qitgani haqidagi rivoyat uning bir muddat bu shaharda yashaganini ko‘rsatadi. Uning Nishopurlik so‘fiylar bilan aloqasi qachon boshlanganini aniqlash mushkul, biroq Abu Turab an-Naxshabiy va Ahmad ibn Hadravayhning malomatiya yo‘nalishining muqaddimasi sifatida qaralishi, ayniqsa Ahmad ibn Hadravayhning futuvvat g‘oyasini shakllantirishdagi o‘rni Hakim at-Termiziy va Nishopur tasavvufiy maktabi o‘rtasidagi bog‘liqlikni belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Asli Raylik bo‘lgan, ammo uzoq yillar Makka shahrida yashagan va Abu Hafs al-Haddod hamda Abu Usmon al-Hiriylarning tasavvufiy qarashlarini yaqindan bilgan Abdulloh ibn Muhammad ar-Roziy (vaf. 310/922) ham Hakim at-Termiziy uchrashgan so‘fiylar qatorida tilga olinadi. Shuningdek, Hakim at-Termiziy yozishmalar olib borgan Muhammad ibn Fazl al-Balxiy (vaf. 319/931) Nishopurlik so‘fiylarning fikriy dunyosini tanitishda vosita bo‘lgan shaxs sifatida ko‘riladi. Chunki Abu Usmon al-Hiriyning Muhammad ibn Fazlga bildirgan yuksak e’tirofi ularning fikrda yaqinligini ko‘rsatadi [4].

Hakim at-Termiziy ikkala so‘fiyga ham yozgan maktublarining o‘xshash mazmunga ega bo‘lishi ularning o‘zaro yaqin aloqada bo‘lganini isbotlaydi. Hakim at-Termiziy, “Kitobu’r-Riyoza va Adabu’n-nafs”, “Riyozatu’n-nafs” va “al-Masail al-Maknuna” kabi ko‘plab asarlarida nafs balolari va uni tarbiyalash usullari haqida batafsil izohlar bergen. U o‘z avtobiografiyasida ham ibodat va itoatdan tashqari, nafsning istak va havoyi nafslariga qarshi kurashish, xaroba va qabriston kabi huwillagan joylarda sayr qilish hamda odamlar ozoriga sabr qilish kabi ba’zi riyozat (ruhiy mashq) amaliyotlarini zikr etadi.

Hakim Termiziy nafsni yovvoyi hayvonga o‘xshatadi va bu yovvoyi hayvonni qanday bo‘ysundirish mumkin bo‘lsa, nafsni ham tarbiyalash mumkinligini aytadi. Nafsni istak va havaslardan tiyish — bu tarbiyaning asosiy kalitidir. U bu holatni quyidagicha izohlaydi:

“Go‘dak onasining sutiga shunchalik mahliyo bo‘ladi-ki, bir lahza ham undan ayrilishga toqat qilolmaydi. Biroq sutdan chiqqach, asta-sekin bu orzudan uzoqlashadi, chunki u bu yetishmovchilikka ko‘nikadi va boshqa taom-u ichimliklarning mazasi va foydasini anglay boshlaydi.”

Hakim at-Termiziy nafsdan shahvat, rag‘bat (xohish), haybat (o‘zini yuksak tutish), g‘azab, shubha, shirk va g‘aflat kabi yetti xil nuqson borligini aytadi. Iymon qalbga chuqur joylashib, yaqin (aniq ishonch) darajasiga yetgach, bu nuqsonlar o‘z kuchini yo‘qotadi. Albatta, nafsni butunlay yo‘q qilish mumkin emas, lekin qalbi

ilohiy nur bilan ziynatlangan solikda (irodali so‘fiyda) bu nuqsonlar ijobiy shaklga o‘zgaradi:

rag‘bat – Allohnı istashga,  
haybat (dahshat) – Allohdan qo‘rqishga,  
g‘azab – Alloh roziligi uchun g‘azab qilishga,  
shubha – yaqin (aniqlik)ka,  
shirk esa – ixlosga aylanadi.

Nafsni tarbiyalashga doir ushbu qisqacha kirishdan so‘ng, Hakim at-Termiziyning Abu Usmon al-Hiriyya yozgan maktublari mazmunini ko‘rib chiqish mumkin. Hakim Termiziy ilmni ikki turga ajratadi: ulardan birinchisi Alloh taolo haqidagi ilm, ikkinchisi esa nafs, uning makrlari va ayblari haqidagi ilmdir. Unga ko‘ra, solik (rahbarga ergashuvchi so‘fiy) har doim nafsnini tanish, uning kamchiliklarini anglash va ulardan qutulishga urinish bilan band bo‘lsa, butun umrini faqat shu bilan o‘tkazib yuboradi. Aslida esa nafsni tarbiyalashdagi asosiy maqsad — ma’rifatullohga (Allohnı haqiqiy tanishga) erishish bo‘lishi kerak. Chunki bu sa‘y-harakat solikiyning (so‘fiy yo‘ldoshining) qalbini tiriltiradi, nafsnini esa charchatadi. Nafs Allohdan qalbga kelgan tajalliy va kashflar bilan siqilib qoladi, qalb esa aynan shu holatlar bilan hayot topadi.

Bu nuqtada Hakim at-Termiziy ma’rifatullohga erishgan kishilar Allohdan boshqa barcha narsadan yuz o‘girganini ta’kidlaydi. Nafs ham ma-sivolloh (ya’ni Allohdan boshqa narsa) bo‘lgani uchun bu kishilar hatto nafs haqida gapirishni ham yoqtirmaydilar. Ular uchun Allohnı zikr etish oziqqa aylanib qolgan, demak boshqa biror zikr ularga og‘irlik qiladi. Ma’rifatullohga yetishgan kishining qalbi tirik, maqomi ulug‘, nafsning zanjirlaridan ozod bo‘ladi. Shunday holatda bo‘lgan odamning hanuz nafsning ayblari bilan shug‘ullanishi — befoyda va bu darajaga munosib bo‘lmagan holatdir [3].

Boshqa bir o‘rinda Hakim at-Termiziy ilmni yana bir necha toifalarga bo‘ladi. U Alloh taoloning inoyatlari, fellari va tadbirlari, ilohiy hukmlar, borliqning ibtidosi, vahdoniyat va fardiyat (yagonalik va yakkalik) maqomlarida boshlanadigan ilohiy ne’matlarni o‘rganadigan turli xil ilmlarni sanab o‘tadi. Bu ilmlardan birining ipini qo‘liga olgan kishi Allohnинг dengiziga g‘arq bo‘lishi, qalbi tirilishi va Alloh tomonidan yuksaltirilishini ta’kidlaydi. Bularning qarshisida esa nafs va uning nuqsonlariga oid ilm turadi. Hakim Termiziyya ko‘ra, bu ilmning ipini tutgan kishi esa faqat nafs dengiziga g‘arq bo‘ladi, u yerda cho‘kib qoladi va oxir-oqibatda o‘z nafsining qurboni bo‘ladi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Hakim at-Termiziy va Abu Usmon al-Hiriy misolida keltirilgan bu holat, har xil hududlarda yashagan so‘fiylarning bir-birlaridan mustaqil emasliklarini, ular o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tasavvufiy fikrning shakllanishida muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi. Shuningdek, tasavvuf tarixini tadqiq qilishda bu o‘zaro aloqalarni e’tibordan chetda qoldirish mumkin emasligini ham ayon qiladi.

## ADABIYOTLAR:

1. Bernd Radtke - John O’Kane. Islomdagi ilk tasavvufda avliyo tushunchasi. Richmond: Curzon Press, 1966.
2. Bolat Ali. Tasavvufiy mакtab sifatida Malomatiylik. Istanbul: Inson Nashriyoti, 3-nashr, 2011.
3. Çift, Salih. “Hatmu'l-Avliyo, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali al-Hakim at-Termiziy (vaf. 320/932).” Tasavvuf: Ilmiy va akademik tadqiqotlar jurnali, 6/15 (2005), 351–376.
4. Gobillot, Geneviève. “al-Hakīm al-Tirmidhī”. Encyclopaedia of Islam 3, 58-71.
5. Ibn al-Arabiyy Muhyiddin Muhammad ibn Ali. Futuhot al-makkiyya. Tahqiq: Ahmad Shamsuddin. 9 jild. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya.